

BORLIQ FALSAFASIDA

Bozorqulova Umida Samandarovna

bozorqulovaumida9@gmail.com

Fozilova Dilfuza Botir qizi

dilfuzafozilova2004@gmail.com

DTPI Pedagogika fakulteti psixologiya yo'nalishi

1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada borliq falasafasining mohiyati va uning tabiati haqidagi asosiy fikrlarni o'rganishga bag'ishlangan. Borliqni tushunishda turli yondashuvlar, jumladan monizm va dualizm kabi asosiy falsafiy yo'nalishlari ko'rib chiqiladi. Maqolada ontologiya va metafizika nuqtai nazaridan borliqning mavjudligi va uning haqida falsafiy izlanishlar taqdim etiladi

Kalit so'zlar: geometrik, idealik, ontologiya, dualizm, teologik, ideyalik, metafizika, monizm, ong idealizm, makon, zamon materia va metafizika.

Абстрактный В данной статье рассматриваются основные философские подходы к пониманию существования, в том числе монизм и дуализм, которые посвящены изучению сущности философии существования и основных представлений о его природе.

ключевые слова: геометрический, идеализм, онтология, дуализм, теологический, идеализм, метафизика, монизм, дуализм, сознание, время, пространство, материя.

Abstract: This article is devoted to the study of the essence of the philosophy of existence and its nature. Various approaches to understanding existence, including monism and dualism, are considered. The article presents the existence of the universe and philosophical research about it from the point of view of ontology and metaphysics.

Keywords. geometric, idealism, ontology, dualism, theological idealism, metaphysics, monism, dualism, Consciousness, space, time, matter.

Kirish

Borliq falsafasi- bu mavjudlik, borliqning tabiati, uning mohiyati va xususiyatlarini tushunishga qaratilgan falsafiy yo'nalishlari. Bu mavzu insoniyat tarixida qadimiy falsafiy tizimlar va ilm fanlarda muhim o'rin tutgan va hozirgi kunda ham ko'plab falsafiy, ilmiy va diniy oqimlar tomonidan taqiq etilmoqda. Borliq falasafasining maqsadi, eng avvalo mavjudlikni tushunish va unga oid asosiy savolarga javob topishdir. Misol uchun: „Nima uchun borliq mavjud?“, „Borliq qanday shaklarda bolishi mumkin?“, „Insoning borliqda o'rni qanday?“ kabi savollar falsafaning markaziy savollaridan hisoblanadi. Shuningdek, borliqning o'zgarish va rivijlanish qonuniyatlari, ayniqsa dialektika yondashuvlar muhokama qilinadi. Falsafiy

talimotlarda borliqni tushunish borasida mavjud bo'lgan turli qarashlar yondashuvlar keltirilgan, bu borliq falsafasining keng va murakkab qismi hisoblanadi.

Asosiy qism

Borliq falsafasi qadimgi Yunonistonda ilk bor paydo bo'lgan. Ayniqsa, Aristotel va Parmenidning ishlarini ontoliyaning rivojlanishida katta ahamiyatga ega bōlgan . Parmenitning “faqat borliq mavjud ” dega fikri, borliqning o'zgarimas abadiy ekanligi haqidagi nuqtai nazarni ilgari surgan Aristotel esa borliqni uning shakllari va maqsadlari orqaliy tushuntirishga harakat qilgan . Őrta asrlarda borliq falsafasi kōproq diniy va teologik nuqtayi nazar bilan bog'laydi bōlib , Afsina , Farobiy, Averroes kabi buyuk islomiy faylasuslar borliq va uning mavjutligi haqida kōplab fikirlari mavjud. Borliq insonyatning eng qadimiy va chuqur ōyga falsafiy mavzularidan biri bōlib borliq nimadan iborat , uning mohiyati tuzilishi va maqsadi haqida turli davrlarda va turli maqsalarda turlicha fikrlar ilgati surilgan. Birliqning tabiatini tushunishga harakat qilish insoning ongi va tafakkurining eng yuqori darajasini ifodalaydi. Borliq bu mavjud bo'lgan voqea va hodisalarning yig'indisidir. Falsafiy jihatdan birliqning mohiyatini tushunish uchun birinchi navbatda „mavjudlik" va „haqiqat" larni kabi tushunchalarni aniqlash zarur. Borliq falasafasining tarixiy rivojlanishi kōp asrlarni qamrab oladi va uning asosiy yōnalishlari qadimgi falsafa ōrta asrlar falsafasi , yangi va zamonaviy falsafa kabi bosqichlarga bōlinadi .

Qadimgi falsafa :Qadimgi yunon falasafasining asoschilari borliqni tushunishga oid bir qancha falsafiy g'oyalar ishlab chiqdilar. Masailan, Pifagor va Platon o'z borliqni geometrik va ideyalik shakllarda tasavvur qilishgan. Ular borliqni faqat sezgi orqali emas balki, ong orqali tushuntirishga intilishgan. Aristotel esa borliqni materia va formaning birligi sifatida ko'rgan yana har bir mavjud narsa o'zining shakli (formasini) va moddaning (materianing) birlashmasidan iborat deb hisoblashgan.

O'rta asrlar falsafasi borliq va yaratuvchi xudo o'rtasidagi bog'lanish ilohiy mavjudlikning mohiyati masalalari muhim ahamiyat kasu etgan. Avliyo Avgustin va Foma Akvinskij kabi olimlar birliqning mohiyat va yaratuvchi xudo o'rtasidagi munosabatlarni izohlashgan.

Yangi zamonaviy falsafa: Yangi zamonaviy falsafa , ayniqsa, Rene Dekartning „Men o'ylayman demak boraman" degan g'oyasi bilan borliqning subjektiv tushunilishi va anglashini inobatga olgan. Immanuel Kant esa borliqni inson taffakuri orqali anglashi mumkin deb hisoblagan bu g'oyasi hisoblanadi.

Zamonaviy borliq falsafasida bir qancha yangi yondashuvlar rivojlangan. Masalan: ontologiya-borliqning strukturasi va turli shakllarini o'rganadigan soha, shuningdek , metafizika -borliqning asosiy qonuniyatlarini , yaxlitlik va mohiyatini tushuntirishga qaratilgan ilmiy va falsafiy tadqiqotlar. Mavjudlik va vaqt masalalari ham zamonaviy borliq falsafasida markaziy o'rin tutadi, chunki ularni tushunish insoning o'zining mavjudligini anglashga yordam beradi Borliq falsafasining yana bir

muhim tushinchasi haqiqatdir. Falsafada haqiqat borliqni asl mohiyati yoki uning yaxlitligini anglatadi. Haqiqatni qanday tushunish borliq falsafasining markaziy masalasidir. Idealizm talimoti haqiqatni ong , go'yo fikr bilan bog'laydi, masalan , Platoning idealar dunyosi yoki Hegeldan keyingi idealizm da borliqning haqiqati ruh va ongda yashaydi.

Ontologiya borliqning falsafasining asosiy tarmog'idir va mavjudlikning tabiati , uning mohiyati, shakllari haqida savolarni o'rganadigan. Ontologiya borliqning qanday tavsiflash mumkinligi uning tarkibi va tuzilishi , mavjud bo'lishining turli darajalari haqida gapiriladi. Borliq falsafasi insoning eng chuqur savolarga javob izlashda davom etadi bu tarmoq bizga mavjudlikning asl mohiyatini aniqlashga yordam beradi va hayotining ma'nosini topishga yo'l ochadi. Falsafiy yondashuvlar orqali borliqni turli xil jihatlar da o'rganish uning haqiqiy tabiatini tushunishga imkon yaratadi. Borliq va uning mohiyati haqidagi falsafiy izlanishlar, nafaqat ilm fan, balki insoning dunyo qarashini shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega.

Xulosa

Borliq falsafasi –borliqning tabiati mavjudlikning mohiyati, vaqt, makon va haqiqat haqida o'ylashni ertalab qiladigan falsafiy soha. Har bir falsafiy maktab va oqim borliqni turlicha talqin qilinadi bu esa borliq haqidagi tushunchalarni yanada boyitadi. Borliq falsafasi mavjudlikning tabiatini va uning asosiy qonuniyatlarini tushunishga qaratilgan ulkan bir soha bo'lib uning talimotlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab keladi. Falsafiy maktablar orasida va uning qanday shakllarda ekanligi haqidagi qarashlar farq qiladi, ammo barchasi borliqni o'rganishga yangi bilib va tushunchalarni yaratishga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Falsafa asoslari [Matn]: o'quv qo'llanma /Q.Nazarov [va boshq.] - Toshkent. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018.-380b.
2. Temur tuzuklari. –T. : G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996. 68-b
3. Komilov N. Tasavvur. 1-kitob –T.: Yozuvchi, 1996.- 48-b
4. Muhammad Fazlul-imom Xayriobodiy. Mirqotul mantiq.- T.: Toshkent islom universiteti, 2011. 3- b
5. Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida./ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016-y., 34-son , 426-modda; 2017-y., 24-son, 487-modda.